

Ikromov Akmal Ikromovich



Ikromov Akmal Ikromovich

(1898 yil, Toshkent – 1938 yil, 13 mart, Moskva)

(1929 yil dekabr – 1937 yil sentabr)

Davlat va siyosat arbobi. Toshkentning O'qchi mahallasida maktabdor Ikrom domla oilasida tug'ilgan. Otasining maktabida savod chiqargan. Yoshligidan fors va arab tillarini puxta egallab, sharq adabiyotini chuqur o'rgangan. Toshkent shahrida o'qituvchi (1918-1919), "*Izchillar to'dasi*" va "*Chig'atoygurungi*" a'zosi, **Elxon** taxallusi bilan she'rlar yozgan. Namangan, Farg'ona, Sirdaryo viloyatlari partiya tashkilotlarida turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan (1919-1921). Turkiston Kommunistlar partiyasi Markaziy Kengashining kotibi va tashkiliy instruktorlik bo'limi mudiri (1921-1922). Turkiston Respublikasida yangi iqtisodiy siyosat (NEP) ni amalga oshirilishida tashabbuskorlik qilgan. 1922-1924 yillarda Moskvadagi Kommunistik universitetda o'qidi. 1925 yil yanvardan Toshkent viloyati partiya komiteti kotibi. 1925 yil fevraldan *O'zbekiston Kommunistlar Partiyasi Markaziy Kengashi kotibi, birinchi kotibi* (1929 yil

dekabr – 1937 yil sentabr). 1931-1934 yillarda Butun ittifoq kommunistlar partiyasi markaziy kengashining O'rtasi byurosi kotibi. Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi a'zosi, 1925-1937 yillarda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi a'zolidigiga nomzod. O'zSSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi Prezidiumi a'zosi (1925-1937).

A. Ikromov 1919-1924 yillarda imkoniyati doirasida o'zbek xalqi manfaatlarini uchun Markaziy siyosatiga qarshi kurashgan. U mohir publitsist sifatida O'zbekistonda qishloq xo'jaligini, xususan paxtachilikni rivojlantirishga, madaniy qurilishga doir ko'plab nazariy maqolalar, ilmiy asarlar yozgan. Ikromov o'z faoliyati davomida O'rtasi byurosi va Markaziy ko'rsatmalariga amal qilishga majbur bo'lgan. 1925-1927 yillarda o'n sakkizlar guruhi, inog'omovchilikka qarshi g'oyaviy kurash olib borgan. O'zbekistonda yer-suv islohati, majburiy jamoatlashtirish, respublikada zamonaviy sanoat asoslarini qurish va boshqa tadbirlarga rahbarlik qilgan. Jadidlarni "burjua millatchiligi" da ayblagan. Ikromov garchi bolshevistik g'oyadan chekinmagan bo'lsa-da, mustabid tuzum qatag'onchilari uni ayab o'tirmadilar. 1937 yil sentabrda Toshkentda qamoqqa olindi. sovetlarga qarshi "O'ng troskiychi blok" deb atalgan ish bo'yicha Moskvada sud qililib, sobiq SSSRni bo'lib yuborish, jumladan, O'rtasi respublikalarini ajratib olish, davlat tuzumini ag'darish, kapitalizmni, burjuaziya hokimiyatini tiklashda ayblandi va otib tashlandi.

1957 yil 3-iyunda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi A. Ikromovni aybsiz deb topdi va u oqlandi. Ikromov xotirasi abadiylashtirilib, Toshkent shahridagi tumanga, yirik ko'chaga, mahallalar va maktablarga uning nomi berilgan. Toshkent va Samarqandda haykali o'rnatilgan.

2023-12-20 11:24:00